

## C1 DARAJA TALABALARINI BADIY TARJIMAGA O'RGATISH LINGVISTIK VA METODOLOGIK MASALA SIFATIDA

Saida Nuriddinovna SULTANOVA

Katta o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ УРОВНЯ C1 ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ПЕРЕВОДУ

Саида Нуридиновна СУЛТАНОВА

Старший преподаватель

Ташкент, Узбекистан

## LINGUISTIC AND METHODOLOGICAL ISSUES OF TEACHING STUDENTS OF LEVEL C1 IN LITERARY TRANSLATION

Saida Nuriddinovna SULTANOVA

Senior Lecturer

Tashkent, Uzbekistan [saidasultanova2314@gmail.com](mailto:saidasultanova2314@gmail.com)

UDC (УО'К, УДК): 81'25

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Sultanova S. N. C1 daraja talabalarini badiiy tarjimaga o'rgatish lingvistik va metodologik masala sifatida// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 6 (47). — B. 144-156.

<https://doi.org/10.36078/1676355343>

Received: October 6, 2022

Accepted: December 17, 2022

Published: December 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotatsiya.** Maqolada badiiy tarjima sohasida kadrlar tayyorlashning hozirgi tendensiyalari va muammolari o'ganilgan. Bugungi kunda badiiy tarjimani mukammal darajada bajara oladigan, C1 darajadagi talabalarini, yetuk mutaxassis-tarjimonlarni tarbiyalash hamda badiiy tarjimani o'qitish metodologiyasi, madaniy va lingvistik ahamiyat kasb etgan tarjima jarayonida sodir bo'ladigan bir qator to'siqlar va muammolarni bartaraf etishda tarjima konsepsiyasini yaratish muammosi ushbu maqolada ko'rib chiqilgan. Tilshunos-tarjimonlarni tayyorlashda sotsiolingvistik jihat bilan bir qatorda tarjima modellariga e'tibor qaratish ham lingvistik kompetensiyanı, ham ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning individual komponentlarini shakllantirishni samarali amalga oshirishga imkon berishini hisobga olib, maqolada tarjimaning lingvistik modellari ko'rsatilgan. Badiiy tarjima jarayonida ajralib turadigan semantik, kommunikativ, konceptual, transformatsion va situativ (holat, vaziyat) modellari tadqiq etilgan va ushbu jarayonda tillararo nutq faoliyatining lingvistik jihatlarini o'rganish muhim omil sifatida ta'kidlangan. Metodologik nuqtai nazardan badiiy tarjimaga o'rgatishda autentik matnlarni to'g'ri tanlash, ularning pragmatik ahamiyati yoritilgan. Qolaversa, tarjimani o'rgatish uchun matnlarni tanlash masalasi bo'yicha nazariy manbalarni tahlil qilish, tanloving asosiy tamoyillarini tahlil qilish bo'lajak tarjimonlarda strategik kompetensiyanı shakllantirish uchun nimalar zarurligi ko'rsatilgan va tavsiyalar berilgan. O'yaymizki, C1 daraja talabalarini badiiy tarjimaga o'rgatish lingvistik va metodologik masalalari yechimiga qaratilgan ushbu maqola tarjima nazariyasini o'rganish muammolari bilan shug'ullanuvchi keng jamoatchilik, shuningdek, tarjimon-talabalar, sohaga qiziqqan tajribasiz tarjimonlar, qolaversa, professional tarjimonlar va fan o'qituvchilar uchun samarali bo'ladi, deb o'yaymiz.

**Kalit so‘zlar:** diskurs tahlil; lingvistik mexanizm; tarjima modellari; semantik model; kommunikativ model; stilistik tahlil; lingvosonium; kompetensiya; autentik matn.

**Аннотация.** В статье рассматриваются современные тенденции и проблемы подготовки кадров в сфере художественного перевода. Сделан акцент на ряд препятствий и проблем, возникающих в процессе перевода, где методика обучения художественному переводу приобрела культурно-языковую значимость. В статье показаны лингвистические модели перевода с учетом того, что переводческие модели наряду с социолингвистическим аспектом в подготовке лингвистов-переводчиков позволяют эффективно осуществлять формирование как языковой компетенции, так и отдельных компонентов социокультурной компетенции. С методической точки зрения, автором были выделены правильный отбор аутентичных текстов и их практическое значение в обучении художественному переводу, а также систематический подход в подготовке как лингвистов-переводчиков, так и учителей художественного перевода. В статье сделан анализ и выводы в ходе изучения мнения известных ученых по аспектам методики преподавания художественного перевода, по исследованиям теоретических источников вопроса выбора текстов для качественного обучения переводу будущих специалистов, также сделан анализ основных принципов отбора аутентичных материалов для формирования стратегической компетентности у будущих переводчиков. Считаем, что предлагаемая статья по лингвистическим и методологическим вопросам обучения студентов уровня C1 художественному переводу будет интересна широкой общественности, тем, кто занимается проблемами изучения теории перевода, а также студентам-переводчикам, начинающим переводчикам, профессиональным переводчикам и преподавателям данной дисциплины.

**Ключевые слова:** дискурсивный анализ; лингвистический механизм; модели перевода; семантическая модель; коммуникативная модель; стилистический анализ; лингвосоциум; компетентность; аутентичный текст.

**Abstract.** This article examines current trends and problems of personnel training in the field of literary translation. The problems arising in the process of translation are noted, where the methodology of teaching literary translation has acquired cultural and linguistic significance. The article shows the linguistic models of translation, taking into account that translation models, along with the sociolinguistic aspect in the training of linguists-translators, allows for the effective formation of both linguistic competence and individual components of sociocultural competence. The author shows the linguistic models of translation, considering that translation models, along with the sociolinguistic aspect in the training of linguists-translators, allows for the effective formation of both linguistic competence and individual components of sociocultural competence. Highlighted proper selection of authentic texts and their practical significance in teaching literary translation, as well as a systematic approach in the training of both linguist-translators and teachers of literary translation. We believe that the proposed study on the linguistic and methodological issues of teaching literary translation to C1 level students will be of interest to the wide public who deal with the problems of studying the theory of translation, as well as to students-translators, novice translators, professional translators and teachers of this discipline.

**Keywords:** discourse analysis; linguistic mechanism; translation models; semantic model; communicative model; stylistic analysis; linguistic society; competence; authentic text.

**Kirish.** Badiiy tarjima jarayoni tillar va madaniyatlar o‘zaro ta’sirining murakkab, ko‘p qatlamlari jarayonida sodir bo‘ladi. Shu o‘rinda badiiy tarjimani o‘qitish metodologiyasi madaniy va lingvistik ahamiyat kasb etgan tarjima jarayonida sodir bo‘ladigan bir qator to‘siqlar va muammolarni engib o‘tishda va o‘zga madaniyatni to‘g‘ri talqin eta olish imkonini beradigan tarjima konsepsiyasini yaratish muammosini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi va tadqiqotning dolzarbligini namoyon etadi.

Badiiy tarjimaga o‘rgatish jarayonida amalga oshirilayotgan bir qator ishlar va erishilgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, tarjima samaradorligining rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish, C1 daraja talabalarini badiiy tarjimaga o‘rgatishning lingvodidaktik asoslarini keng ko‘lamda talqin etish yetuk mutaxassislarini — bo‘lajak tarjimonlarni yetkazib berish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Tarjima turli tillarda so‘zlashuvchi kishilar o‘rtasida muloqot qilish imkoniyatini ta’minalash vositasidir. Muloqotni madaniyatlararo muloqot tarzida badiiy tarjima timsolida olib qaraydigan bo‘lsak, matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayoni serqirra va turli xususiyatlarga ega.

Tarjima nazariyasi tarjimon-talabaga ham, tajribasiz tarjimonga ham, professional tarjimonga ham, tarjimani o‘rgatuvchiga ham kerak (12, 44).

**Asosiy qism.** Tarjima nazariyasi tarjima amaliyoti va tarjima jarayonining umumiy lingvistik asosidir. Tarjima faoliyati yagona lingvistik mexanizmga asoslanadi, u asosiy nazariy modellardan iborat bo‘lib, ular o‘z navbatida ilmiy tasnifga ega. Shuningdek, tarjimaga o‘rgatishda turli metodlar mavjud bo‘lib, biz diskurs tahlil metodiga yondashishni lozim topdik. Diskurs tahlil, V.S. Grigoreva o‘z monografiyasida diskurs tahlil matn maqsadiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linshini qayd etadi, ya’ni argumentativ, informatsion, ekspressiv va sotsial-ritual turlarga (3, 81). Bizning fikrimizcha badiiy matn tarjimasi jarayonida diskurs tahlilning ekspressiv va sotsial-ritual turlari ayniqsa muhim. Ekspressiv diskurs maqsadi muloqot jarayonida ijobiy yoki salbiy taassurotni yaratish, vaziyatga bog‘liq bo‘lgan aniq bir fikrni shakllantirishdan iborat bo‘lib, o‘y va hissiyotlar, xulq-atvor orqali atrofdagi kishilarga o‘tkaziladigan kuchli ta’sir, shuningdek kishi ichki dunyosini keng ko‘lamda bayon etilishiga turtki bo‘lishdir. Bularning barchasi kishining psixologik holati bilan chambarchas bog‘liq. Badiiy asarlarda muallif tomonidan yaratilgan asar qahramonlarining psixologik holatlari tarjimada o‘z aksini topishiga erishishda tarjimon ekspressiv diskurs tahlilga yondashsa adekvat tarjima kelib chiqishi muqarrar.

Bugungi kunda tarjimashunoslikda bir qancha “tarjima modellari” mavjud bo‘lib, bu modellarning har biri tarjima jarayonidagi real hayot hodisasining turli jihat va xususiyatlarini

tillararo transformatsiyaning muayyan turi sifatida aks ettiradi. Hozirda mavjud tarjima modellaridan qaysi biri “to‘g‘ri” yoki “aynan mos” degan savolni berish noto‘g‘ri. Ularning barchasi o‘ziga xos tarzda to‘g‘ri, chunki ular bir xil hodisani (tarjima jarayonini), garchi turli tomonlardan bo‘lsa ham, modellashadiradi va, albatta, mavjud modellarning hech biri mutlaq haqiqat yoki universallikni da‘vo qila olmaydi.

Hozirgi vaqtida tarjima jarayonining eng keng tarqalgan modellari: situativ, konseptual, transformatsion, semantik, semantik-semiotik, kommunikativ, informativ, psixolingvistik, ekvivalentlik darajalari nazariyasi modeli va boshqalar bo‘lib, ular tarjima jarayonini turli yo‘llar bilan amalgalashish imkoniyatini beradi.

Matn tarjimasi manba matniga mos kelishi yoki keng ko‘lamda o‘xshash bo‘lishi kerak. Tarjimaning lingvistik modellari orasida badiiy tarjima jarayonida semantik (Dj. Ketford), kommunikativ (O.Kade), konseptual (L. K. Latishev), transformatsion (Yu. Nayda) va situativ (V. G. Gak) modellari alohida ajralib turadi.

Tarjimaning semantik modeli asl matn va tarjima matnlarining semantik tomonini o‘rganish, nutq birliklarini taqqoslash, ularning tuzilishini tahlil qilish, asl matndagi birliklar yoki komponentlarni ajratish va ularga tarjima tilida ekvivalent yoki o‘xshash birliklar tanlash masalalarini qamrab oladi. Badiiy tarjimada adekvatlikka erishishda tarjimon matn mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va muallif uslubidan kelib chiqishi kerak bo‘ladi (15).

V. N. Komissarov ekvivalentlik darajalarining ierarxik ravishda o‘zaro bog‘langan besh darajaga ega mukammal modelini yaratdi. Bular:

- 1) muloqot maqsadi darajasi;
- 2) vaziyatni tavsiflash darajasi;
- 3) vaziyatni tasvirlash darajasi;
- 4) gap tuzilishi darajasi;
- 5) leksik-semantik moslik darajasi.

V. G. Gak tomonidan taklif etilgan tarjimaning situativ (situatsion) modeli orqali tarjima tilida ekvivalent matnni yaratishda asl matndagi vaziyatni adekvat tarzda aniqlashda quyidagi uch holat kutilgan natijani beradi:

- 1) ekvivalenti bo‘lman leksik birliklarni tarjima qilishda;
- 2) asl nusxada tasvirlangan vaziyat tarjima tanlovini aniq belgilab berganda;
- 3) vaziyat asl nusxada qanday tasvirlanganidan qat‘iy nazar, tarjima tilida ma’lum bir vaziyatni tasvirlashning faqat bitta usuli mavjud bo‘lgan holatda.

Masalan: “*Stop, I have a gun!*” — “*To’xta! Menda miltiq bor*”, deb emas, balki “*Qimirlama! O‘q uzaman*” tarzida tarjima qilinsa, adekvatlikka erishiladi.

Kommunikativ model xususida to‘xtalsak, tilshunos O. Kadening fikriga ko‘ra, tarjima yordamida tillararo muloqot jarayonida ikki bosqich yaqqol ko‘zga tashlanadi: 1. Tarjimonning asl matndan xabardorligi, 2. Tarjimaning yakuniy matnnini yaratilishi. Bunday jarayonning dastlabki bosqichida tarjimon asl matndagi

ma'lumotni "chiqarish" bilan shug'ullanadi. Keyingi bosqichda esa tarjima tilidagi barcha kerakli lingvistik vositalarni tanlaydi. Tarjima jarayonining aynan shu bosqichida bir tilning leksik vositalaridan ikkinchi tilning leksik vositalariga o'tish jarayoni sodir bo'ladi (6, 25).

Bizning fikrimizcha, tarjimaning kommunikativ yo'naltirilgan modelini shakllantirishda nutq xabarini yaratish, idrok etish va tushunish kabi masalalar yechimi lingvistik jihatlar bilan bog'liq. Tarjimaning kommunikativ modeli asl matnni o'zga til va o'zga madaniyat tarzida idrok etishning umumlashtirilgan modeli bo'lib, uning vazifasi asl matn tarjimasini tarjima tilidagi adekvat yoki ekvivalent shaklini yaratishdir.

Tarjimaning konseptual modeli L. K. Latishev tomonidan taklif qilingan model bo'lib, tarjima faoliyati maqsadli til (tarjima tili) konteksti va uning lingvistik me'yorlari asosida ko'rib chiqiladi, shuningdek, tarjimon nutqining maqsad tilida to'g'ri va chiroli shakllanishi g'oyasi ilgari suriladi. L. K. Latishev Shveytserning tarjima jarayoni bir martalik urinish emasligi haqidagi gipotezasiga asoslanib, tarjimaning nazariy modelini "bir qator ketma-ket urinishlar" shaklida tuzadi, ularning har biri asl matn va tarjima matni tillari o'rtasidagi tafovutlarni, ya'ni lingvoetnik to'siqlarni engishga qaratadi (10, 143).

Yudjin Nayda uch bosqichdan iborat bo'lgan tarjimaning transformatsion modelini ishlab chiqdi: 1) A tilning (asl matn tili) tashqi tuzilishi tahlili — so'z va iboralarning grammatik munosabatlari va ma'nolarini hisobga olgan holda grammatik o'zgarishlar tahlili; 2) uzatish — bu bosqichda A tilining tahlil qilingan matn mazmuni B tilining (tarjima tili) lingvistik vositalari yordamida uzatiladi; 3) qayta ishslash (rekonstruksiya) — matnni tarjima tili lingvistik normalariga moslashtirish. Yu. Nayda ekvivalentlikni ikki turga ajratishni taklif etadi: formal va dinamik.

Yu. Nayda ta'rifiiga ko'ra, formal ekvivalentlik "asl matnga yo'naltirilgan" bo'lib, ko'p tilli matnlarni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan. Bunday ekvivalentlikka tarjima jarayonida so'z turkumlarining saqlanishi, asl matn gaplari tuzilishini (struktura) saqlanishi, tinish belgilarining saqlanishi, bandlarga bo'linishi va muvofiqlik tamoyilini qo'llash orqali erishiladi (ya'ni ma'lum bir so'zning tarjimasida bir xillik saqlanadi). Shuningdek, barcha idiomalar kalkalashtiriladi, o'zgarishlarlar izohlarda tushuntiriladi va hokazo.

Dinamik ekvivalentlik "retseptorga (qabul qiluvchi) yo'naltirilgan" va tarjimani o'quvchiga ta'sir qilish tengligini ta'minlashga intiladi. Bunda xuddi "muallif matnni tarjima tilida yozganidek" eshitilishi uchun leksika va grammatikani tarjima tiliga moslashtirish maqsad qilinadi (11, 56).

Biz dinamik ekvivalentlik badiiy tarjimada muhim degan fikrdamiz. Tarjimon nainki chet tili, balki ona tilidagi lingvistik vositalarni ham chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Badiiy asarlar tarjimasida ona tilini bilish darajasi ham yuqori bo'lishi talab etiladi. Odatda, tarjimon tarjima tili vositalaridan foydalangan holda asl nusxaning semantik va stilistik ma'lumotlarini qayta yaratadi.

Tarjima jarayoni ichki va tashqi kodlardan iborat bo'lib, lingvistik jihatlar jarayonning tashqi, psixologik jihatlar esa ichki kodidir. Badiiy tarjima jarayonida matn muloqot hodisasi sifatida ko'rib chiqilishida matnning lingvistik jihatlari keng ko'lama o'r ganilishi lozim.

Tarjimaning lingvistik masalasi tarjima matnining manba matniga qay darajada muvofiqligi tahlilini o'r ganadi, ya'ni ikki til bilan bog'liq lingvistik hodisalarning grammatik (morfologik va sintaktik), semantik (matn mazmuni), pragmatik (adresat-muallif va qabul qiluvchi-o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi belgining shakllanish jihatlari), fonetik, leksik va stilistik xususiyatlari tahlilini qamrab oladi.

Badiiy tarjimani lingvistik jihatdan o'r ganish badiiy matnni aniq, obyektiv faktlar asosida yaratish imkonini beradi. Aynan lingvistik yondashuv tarjima jarayonida tarjimonni obyektiv ravishda funksional — stilistik tahlil qilishga undaydi. Natijada asl matnning semantik mohiyati to'liq ravishda, funksional — stilistik muvofiqlikka erishilgan holda tarjima matnida o'z aksini topadi. Binobarin, bu lingvistik jihatlarni tarjima matnida aynan qayd etilishini anglatmaydi, balki asl matn va tarjima matnlari o'rtasidagi mazmun va shakl munosabatlarining dialektik birligini (lisoniy birlikni qarama-qarshi tomon butunligi) tarjima orqali yoritish imkonini beradi.

"Har qanday tarjima lingvistik asoslarga tayangan holda matnning filologik tahlili bilan boshlanib, adabiy ijod bilan yakunlanishi kerak" (13, 29).

Biz taniqli olim, tarjimon va pedagog A.B. Fyodrov fikriga to'liq qo'shilamiz, lingvistik asoslar matndagi muallif fikrining adabiy til normalariga muvofiq tarzda to'g'ri, silliq, ta'sirli bayon etilishi, tilning tasviriy va obratzli vositalardan unumli va o'rinli foydalana bilish, nutqning ixcham va sodda, barcha uchun tushunarli va zavqbaxsh bo'lishiga olib keladi.

Matn tarjimasining talab darajasida bo'lishida birliklarning fonetik strukturasini, grammatik normalarini, leksik-semantik, stilistik xususiyatlari kabi qoidalarini aks ettiruvchi adabiy normalarini aniqlash ishlarini yanada chuqurlashtirishni talab etadi.

Misol tarzida tarjimaning grammatik normasi xususida to'xtalib o'tsak, ko'p hollarda oddiy artiklning tarjimada qay darajada to'g'ri berilishi mazmun-mohiyatining saqlanishi yoki yo'qotilishi darajasini belgilaydi. Artikl ingliz va o'zbek tillarining grammatik tizimlari o'rtasidagi tafovutning yorqin namunasidir. O'zbek tilida artikl yo'q, biroq matn tarjimasi jarayonida artikl muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

*A child can understand it — har qanday bola buni tushuna oladi (bola tushuna oladi deb tarjima qilinsa ma'no o'zgaradi)*

*Here is the book you want to read — mana aynan siz o'qishni xohlagan kitob*

Masalan, bir gapda ingliz tilidagi ikki artikl tarjima qilinish holatlarida funksional kompensatsiya qoidasini bilish lozim, chunki

bunday holatda artikl nafaqat grammatik, balki semantik ahamiyatga ham ega.

*They were powerful enough not to need a tsar, especially the tsar.*

*Ular shunchalar qudratli edilarki, hech qanday shohga, ayniqsa, bunday podshohga muhtoj emas edilar.*

Yuksak nutq madaniyatiga tilning barcha imkoniyat va boyliklarini puxta va mukammal egallash asosida erishiladi. Asl matn tiliga qo‘yiladigan talablar matn tarjima tiliga ham qo‘yilishi lozim. Xullas, adabiy til normalaridan chetga chiqish: grammatik, leksik, stilistik, imlo qoidalariga e’tiborsizlik matn tarjimasi sifatini paysaytiradi va kutilgan natijaga erishilmaydi.

Albatta, tarjima qilingan matn hech qachon asl matnning to‘liq va mutlaq ekvivalenti bo‘la olmaydi. Tarjimonning vazifasi bu ekvivalentlikni iloji boricha to‘liq qilish, ya’ni yo‘qotishlarni minimal darajada ushlab turish. Asl matn va tarjima matnidagi qiymatlar o‘rtasida “yuz foiz” mos kelishini talab qilish mutlaqo real emas. Demak, so‘z va tushuncha dialektik birlikdir, lekin ularning har biri o‘ziga xos xoslikni saqlaydi.

V. S. Vinogradovning fikriga ko‘ra, ekvivalentlik — “asliyat va tarjimada mavjud bo‘lgan semantik, stilistik va funksional-kommunikativ ma’lumotlar mazmunining nisbiy tengligini saqlash” (2, 76).

L. S. Barxudarov tarjima jarayonini bir tildagi nutqiy asar (matn) mazmun rejasini o‘zgartirmagan holda boshqa tildagi nutqiy asarga aylantirish jarayoni deb ta’riflaydi. Bu shuni anglatadiki, tarjima qilishda ifoda rejasining birliklari, ya’ni til birliklari almashtiriladi, lekin mazmun rejası, ya’ni matn orqali uzatiladigan ma’lumotlar o‘zgarishsiz qoladi.

Zamonaviy tarjimashunoslikning vazifalari V. N. Komissarov tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- tarjimaning umumiyligining lingvistik asoslarini ochib berish va tavsiflash;
- tarjimani lingvistik tadqiqot obyekti sifatida belgilash;
- tarjima faoliyati asoslarini ishlab chiqish;
- tarjimon harakati nuqtai nazaridan tarjima jarayonini ilmiy tavsiflashning umumiyligini ishlab chiqish;
- tarjima jarayonini amalga oshirishda pragmatik va sotsiolingvistik omillarning ta’sirini tavsiflash;
- “Tarjima standarti” tushunchasini aniqlash va tarjima sifatini baholash tamoyillarini ishlab chiqish (6, 85).

Xulosa tarzida shuni aytish lozimki, badiiy tarjima jarayonida tillararo nutq faoliyatining lingvistik jihatlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi.

Badiiy tarjimaning metodologik masalari xususida so‘z yuritsak, badiiy tarjimaga o‘rgatish metodologik jihatdan hamon to‘liq o‘rganilmagan masalalardan biridir. Garchand, badiiy tarjimaga o‘rgatishda izlanuvchilar va pedagoglar yaxshi tajriba to‘plagan va bir qator masalalarga oydinlik kiritgan bo‘lsalar-da, tarjimaga o‘rgatish metodikasi yetarli darajada yoritilmagan. Badiiy tarjimaga

o'rgatuvchi o'quv maskanlari bo'lajak tarjimonlar uchun kerakli kompetensiyalarni egallashga imkon beruvchi uslubiy bazani va badiiy tarjimaga o'rgatish tizimini ishlab chiqishlari lozim.

V. N. Komissarovning fikriga ko'ra, tarjimaga o'rgatish mashg'ulotlarida bo'lajak tarjimon — talabalar passiv retseptor bo'lib qolmoqdalar (7, 163).

Darhaqiqat, badiiy tarjimaga o'rgatish mashg'ulotlarida aksariyat hollarda talabalar faqatgina o'qituvchi tomonidan taklif etilgan muayyan asarlarning ma'lum bir parchasi tarjimasi bilan shug'ullanadilar xolos.

Badiiy tarjimaga o'rgatish metodikasi o'z ichiga quyidagi masaslalarni qamrab olishi lozim deb o'yaymiz:

1. Badiiy tarjimaga o'rgatish metodikasi aspektlari.
2. Badiiy tarjimaga o'rgatish metodlarini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liq jihatlari.
3. Amaliy masalalar.

Badiiy tarjimaga o'rgatish metodikasi aspektlari xususida so'z yuritsak, bu jihatlar tarjimonlarni tayyorlash jarayoni, tarjimaga o'rgatish amaliyoti, o'quv dasturlari, ta'lim tamoyillari kabi bir qator masaslalarni qamrab oladi. Bu masalalar bilan bog'liq bir qancha muammolar jarayon davomida yuzaga keladi va yuzaga kelgan muammolar yechimi ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarida o'z aksini topishi ayni muddao deb o'yaymiz. Tarjimaga o'rgatish metodikasi bo'yicha olimlar va tadqiqtchilar ko'plab fikrlarni bildirganlar va bir qator bahstalab o'rinnlar mavjud.

V. N. Komissarov fikricha, tarjimaga o'rgatishda uch asosiy masala mavjud bo'lib, bular — *nima uchun o'rgatish? niman o'rgatish? va qanday o'rgatish kerak?* degan masalalardir (7, 189).

Biz ham olimning fikriga qo'shilgan holda uning fikrini quyidagicha talqin etgan bo'lardik, ya'ni tarjima matni qay tarzda tanlanishi kerak? va matn tarjimasi qay tarzda o'rgatilishi lozim?

Olim B.Xatim tarjimaga o'rgatish metodikasidagi quyidagi masaslalarni asosiy muammolar deb belgilaydi: tarjimon bo'lish uchun tug'ma iqtidor talab etiladimi yoki tarjimon jarayonda shakllanadimi, tarjimaga o'rgatish nazariyasi kerakmi, tarjimaga o'rgatish jarayoni umumiyligi bo'lishi yoki maxsus bo'lishi kerakmi, tarjimaga o'rgatishda materiallarni tanlashda qanday mezonlarga amal qilish lozim, tarjimon bo'lish istagidagi talabalarga qanday talablar qo'yilishi kerak, tarjimaga o'rgatishda o'qituvchilar qanday ta'limni oлган bo'lishlari kerak (14, 118).

Bizning fikrimizcha, tarjimon jarayonda shakllanishi va tarjimaga o'rgatish jarayoni maxsus bilishi kerak. Badiiy tarjimaga o'rgatishda materiallarni tanlashda lingvosotsiumning (lingvojamiyat) o'ziga xos tafakkurini qamrab oluvchi autentik yaxlit matnlar tanlansa, bunday tanlov talabalarga ma'lum kommunikativ vaziyatlarda matnlarni talqin qilish va qayta yaratish strategiyasini o'rganish imkonini beradi, shuningdek, materiallarni tanlashda talabaning til bilish darajalari ham inobatga olinishi lozim.

S. A. Korolkova a) bo'lajak tarjimonning ikkinchi darajali lingvistik shaxsini shakllantirish va b) uning kelajakkagi kasbiy

faoliyati uchun tarjimaga o'rgatishning tekstologik modeli uchun matnlar korpusini tanlashning beshta mezonini belgilaydi:

- 1) autentiklik mezoni;
- 2) til materialining lakunarlik mezoni (ikki tilda leksik nomuvofiqlik, chet tilida to'liq analogning yo'qligi tarjimada qiyinchiliklarga olib kelishi masalalari);
- 3) kommunikativ vaziyat mezoni;
- 4) matn turining chastotasi (kasbiy faoliyatda yuzaga kelishi);
- 5) matnlarning tarjimashunoslik tipologiyasi.

Ushbu mezonlar bo'lajak tarjimonlarning tarjimaga o'rgatish jarayonida ham retsipient, ham autentik matnni o'zga tilda qayta yaratuvchi mutaxassis darajasida professional kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan (9, 54).

Metodologiyada autentik matnlarni tanlash uchun bir nechta mezonlar mavjud. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqsak, T. I. Zueva madaniy mezonni taklif qilgan holda mintaqaviy va hududiy ma'lumotlarning keng qamrovligi o'rganuvchilarda qiziqish va motivasiyani sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

T. I. Zueva alohida ta'kidlagan yana bir mezon bu informativlik mezonini bo'lib — bu mezon o'quv materialini tanlashda hal qiluvchi omillardan biri ekanligi va har qanday o'quv materialini tanlashda o'quvchini qiziqtiradigan yangi ma'lumot mavjud bulishi kerakligiga urg'u beradi. T. I. Zuevaning ta'kidlashicha, materiallar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos ravishda tanlanishi, shuningdek, ma'lumotlarning ahamiyati va mavjudligi nuqta'i nazaridan baholanishi kerak (4, 68–69).

O'quv jarayonining professional (tarjima) komponenti nuqta'i nazaridan T. I. Kavitskaya matnlarni tanlashning quyidagi tamoyillarini belgilaydi: 1) matnlarning kasbiy ahamiyati tamoyili (matnlar tarjimaga bo'lgan real ijtimoiy ehtiyojlarni aks ettirishi kerak); 2) mavjudlik tamoyili (ma'lumotlarning hajmi, til xususiyatlari va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha); 3) o'qitish shartlarini hisobga olish tamoyili (ya'ni talabalarning nutq kompetensiyasi darjasи, mashg'ulot bosqichi, soatlar soni) (5, 47–49).

Shunday qilib, tarjimani o'rgatish uchun matnlarni tanlash masalasi bo'yicha nazariy manbalarni tahlil qilish, tanloving asosiy tamoyillarini tahlil qilish bo'lajak tarjimonlarda strategik kompetensiyani shakllantirish uchun quyidagilar zarurligini aniqlashga imkon berdi:

- turli kommunikativ va pragmatik strategiyalarni o'z ichiga olgan turli janrli autentik matnlardan foydalanish — ma'lumot berish, hissiy ta'sir qilish va hokazo;
- tarjimada qiyinchilik tug'diruvchi lingvistik hodisalarini, shuningdek, o'rganilayotgan tilda to'liq ekvivalentiga ega bo'lмагan leksik, frazeologik birliklar yoki nutq klishelarini o'z ichiga olgan matnlar;
- asarning janriga qarab til vositalarining o'zgaruvchanligi va farqlanishini ko'rsatuvchi matnlar;

- madaniyatlararo muloqotning tarkibiy va lingvistik xususiyatlarini o‘z ichiga olgan, hududiy va ijtimoiy-madaniy kelib chiqishi bo‘yicha to‘liq yoki qisman nomuvofiqliklarni o‘z ichiga olgan matnlar;
- to‘liq , yaxlit va mantiqan bog‘liq bo‘lgan kichik shakldagi matnlar (strategik kompetensiya faqat yaxlit, to‘liq, mantiqiy jihatdan bog‘liq matnlar yordamida shakllanishi mumkin);
- tarjima muammolarini o‘z ichiga olgan va tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan matnlar.

Bizningcha ham tilning murakkablik prinsipiغا ko‘ra, tarjimada qiyinchiliklarga olib keladigan lingvistik hodisalarni o‘z ichiga olgan matnlarning tanlanishi maqsadga muvofiq. Lingvistik hodisalar maxsus frazeologik birliklar, nutq klishelari, so‘zlarning lingvostistik konnotatsiyalari, ekvivalent bo‘lmagan leksik birliklar, maxsus grammatik konstruksiyalar, turli janrlarga xos stilistik hodisalar va hokazo.

Olimlar V. Vinogradov va V. Komissarov tarjima jarayonida asl matn va tarjima matni o‘rtasidagi ekvivalentlikni muhim deb ta’kidlasalar, B.Xatim va A. Shveytsar tarjima jarayonida ijtimoiy-madaniy kontekst muhim deb qayd etadilar (1, 24) (8, 43).

Bizning fikrimizcha, barcha olimlarinng qarashlari va fikrlari asosli, shunday bo‘lsa-da, biz ko‘proq ekvivalentlik muhim degan fikr tarafidorimiz.

Badiiy tarjimada tillararo grammatik va leksik farqlardan ko‘ra, ba’zan madaniyatlararo farqlar ko‘proq qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Biroq bu borada bir qator tadqiqotchi va olimlar davriy va madaniy qayta yaratilish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir ovozdan asl matn kitobxoni va tarjima matni kitobxoni madaniyatlararo farqlarga qaramay, asarni bir xil idrok etishi kerak degan xulosaga keldilar.

Badiiy tarjimaga o‘rgatish metodlarini boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari xususida so‘z yuritsak, tarjima mustaqil fan sifatida tan olingen va tarjimashunoslik sohasida ko‘plab ilmiy-islanish ishlari olib borilgan. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlardan tarjimashunoslik fani boshqa fanlar, ya’ni sotsiolingvistika, lingvistika, antropologiya, etnologiya, psixologiya, metodika, didaktika, ritorika, lingvomadaniyat kabi fanlar bilan o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rish mumkin. O‘zaro uzviy bog‘liqlik juda yaxshi natijalarga olib keladi, bunday bog‘liqlik orqali tarjimon tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi mukammal ravishda shakllanadi va natijada butun bilimi, tajribasi va iste’dodi namoyon bo‘ladi.

Biroq ba’zida salbiy tarafi ham mavjud bo‘lib, muammo shundaki, doim ham lingvist, psixolog yoki filolog qarashlari tarjimon qarashlari bilan mos kelmaydi va oqibatda tarjima qilish strategiyalari va maqsadlariga biroz yuzaki qarab o‘tiladi.

Muammo shundaki lingvistlar va filologlar matn retseptorlari qay darajada badiiy matndagi kechinma va hissiyotlarni qabul qilishlariga kamroq e’tibor qaratadilar. Bu masalaning yechimi metodika va lingvodidaktika fanlari yordamida o‘z yechimini topadi, degan fikrdamiz, ya’ni bu fanlar yordamida badiiy tarjimaga

o'rgatishda badiiy matn muallifi maqsadi va niyati maksimal darajada retseptorga to'g'ri tanlangan tarjima strategiya, yondashuv va metodlari orqali yetkazib beriladi.

Badiiy tarjimaga o'rgatish faoliyati nutq ifodaliligin shakllantirish, intellektual va badiiy-estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni ham hal etish imkonini beradi.

Badiiy matn tarjimasini adekvat ravishda amalga oshirishni bo'lajak tarjimonlarga o'rgatishda pedagog oldida ikki asosiy vazifa turadi, degan fikr damiz, ya'ni badiiy tarjima mashg'ulotlari jarayonida pedagog talabalar amalga oshirayotgan matn tarjimasi qahramonlari hissiyotlarini tushunishi va uning kechinmalari nimaga qaratilganligining farqiga borishga ko'maklashishi.

Pedagog - tarjimon qobiliyati (tajriba)	Talaba — tarjimon qobiliyati (natija)
<ul style="list-style-type: none"> <li>— Muallif uslubini saqlagan holda asar tarjimasi matnni adekvat ravishda izohlash va talqin qilishga o'rgata olish</li> <li>— Rejalashtira olish, strategiya va metodlarni to'g'ri tanlay bilish.</li> <li>— Tarjimon qobiliyati — kompetentlikni shakllantira olish</li> <li>— Kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmani yetkazib bera olish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>— Muallif uslubini saqlagan holda taassurotlarini yozma nutqda bayon eta olish.</li> <li>— Umumlashtira olish va mosini tanlay bilish</li> <li>— Tarjimon qobiliyati — kompetentlikni yaqqol namoyon eta olish</li> <li>— Kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmani yuqori darajada qo'llay olish</li> </ul>

Badiiy tarjimaga o'rgatishning amaliy masalalari xususida so'z yuritsak, ular quyidagilar: badiiy tarjimaga o'rgatish zaruriyati; badiiy tarjimaga o'rgatish bo'yicha o'quv dasturlarni yaratish; tayyorlov sifatini oshirish.

Ikki tilni bilgan kishi tarjimani adekvat tarzda qila oladi, degan fikr hamon mavjud. Biz bu fikrga mutlaqo qo'shilmaymiz, tarjimonlarni, shu jumladan, badiiy tarjima bo'yicha tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati hamon dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bilingvizm mohiyati va til shakllarining xilma-xillagini to'liq tushunmaslik tarjima mahoratiga yetarlicha baho bermaslikka olib keladi.

Tarjimonlarni tayyorlashdagi amaliy masalalar, fikrimizcha, quyidagi ikki muammoni o'z ichiga oladi:

— oliy ta'lim muassasalarida tarjimaga o'rgatish amaliyotdan yiroq, ya'ni yetarli darajada emas.

— tarjima darslarini chet tili o'qituvchilari yoki filologlar tomonidan olib borilishi.

**Xulosa.** Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, badiiy janrdagi asarlarni tarjima qilishda diskurs tahlildan foydalanish tarjimonga matnga xos bo'lgan ma'nolarning nozik jihatlarini to'liq tushunish imkonini

beradi. Badiiy tarjimaga o'rgatishda pedagoglar oldida murakkab vazifa yotadi, ya'ni bo'lajak tarjimonlarni o'zga tilning grammatik, leksik, fonetik xususiyatlarini, lingvomadaniy jihatlarini va strukturasini tahlil eta olish, tahlil orqali matnni to'liq tushunish va shundan keyingina tarjima qilishga o'rgatish ayni muddaodir.

Ta'kidlaganimizdek, badiiy tarjima jarayonida semantik, kommunikativ, konseptual, transformatsionsituativ va shu kabi modellar muhim ahamiyatga ega. Tarjimanining semantic modeliga keladigan bo'lsak, ushbu model badiiy tarjimada etakchi ahamiyat kasb etadi degan fikrdamiz, ekvivalentlik darajalarining eng mashhur nazariyalari semiotik asoslarga, aniqrog'i, semiotika tomonidan aniqlangan uch turdag'i belgi munosabatlari — pragmatik, semantik va sintaktik munosabatlarga asoslanadi. Ekvivalentlik darajasi asl matn va tarjima matni o'rtasidagi mazmuniy o'xshashlik darajasi bo'lib, tarjima jarayonida asl nusxa mazmunining saqlanib qolgan qismi bilan belgilanadi. Konseptual model, fikrimizcha, badiiy tarjimada muhim ahamiyatga ega, albatta, badiiy asarning tarjimasi kitobxonlarga asl matndagidek ta'sirchan va chiroqli tarzda yetkazilishi lozim, bunday natijaga erishishda tarjimon bir necha marotaba matn bo'lagining birlamchi versiyasiga qaytish orqali tarjimani takomillashtiradi, asar nutqi bilan ishlaydi va natijada eng yaxshi tarjima variantini tanlaydi. Asarlarning eng yaxshi tarjima versiyalari yillar davomida qilinganligi bejiz emas. Shu qatorda, badiiy tarjimaga o'rgatishda autentik matnlardan foydalanish o'z afzalliklariga ega. Autentik matnlar pragmatik ahamiyatga ega, ijtimoiy-madaniy faktlar va voqeliklar bilan to'yingan, shuningdek, uslub va janr jihatidan xilma-xildir. Bularning barchasi o'quvchilarning bilim olish faolligini rag'batlantiradi va ularning motivasiyasini oshiradi.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Виноградов В. С. Перевод. Общие и лексические вопросы. — М., 2004. — 240 с.
2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). — М.: Изд-во Ин-та общ. сред. образования РАО, 2001. — 224 с.
3. Григорьева, В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивный аспекты: монография. — Тамбов: 2007. — 288 с.
4. Зуева Т.И. Аутентичный иноязычный текст в процессе обучения иностранным языкам и культурам // Современные научоемкие технологии, 2004. — № 4. — С. 68–69;
5. Кавицкая Т. Принципы отбора текстового материала для обучения письменному переводу// Вісник Національної академії Державно і прикордонної служби України, 2013. — Вип. 3. — С. 47–49.
6. Комиссаров В.Н. Теория перевода: (Лингвистические аспекты). — М.: Высш. школа, 1990. — 253 с.
7. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение: учеб. пособие. — М.: ЭТС, 2002. — 424 с.
8. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода (Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых). — М., 1999. — 134 с.
9. Королькова С.А. Текстологическая модель обучения письменному переводу студентов языковых вузов (на материале французского языка): дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / С.А. Королькова. — Волгоград, 2006. — 198 с.

10. Латышев Л.К Технология перевода: Учеб. пособие для студ. лингв., вузов и фак. /. — 2-е изд., перераб. И доп. — М.: Издательский центр «Академия», 2005. — 320 с
11. Нелюбин Л.Л. Введение в технику перевода: учебное пособие. — М.: Флинта, 2009. — 216 с.
12. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. — М.: Р. Валент, 2007. — 244 с.
13. Федоров А.Б. Основы общей теории перевода: лингвистические проблемы. — М: Издательский Дом «Филология Три», 2002. 5-е изд. — 416 с.
14. Hatim B. Teaching and Researching Translation. Harlow: Pearson Education Limited, 2001. — 254 p.
15. Понятие эквивалентности в работах Дж.Кэтфорда. Вики, 2016. <http://ru.eltranstheorymastering.wikia.com/wiki>

### References

1. Vinogradov V. S. *Perevod. Obshchie i leksicheskie voprosy* (Translation. General and lexical questions), Moscow, 2004, 240 p.
2. Vinogradov V. S. *Vvedenie v perevodovedenie (obshchie i leksicheskie voprosy)* (Introduction to translation studies (general and lexical issues)), Moscow: Publishing house Inta obshch. environments, education RAO, 2001, 224 p.
3. Grigorieva, V.S. *Diskurs kak element kommunikativnogo protsessya: pragmalingvisticheskii i kognitivnyi aspekty* (Discourse as an element of the communicative process: pragmatical linguistic and cognitive aspects), Tambov, 2007, 288 p.
4. Zueva T.I. *Modern science-intensive technologies*, 2004, No. 4, pp. 68-69.
5. Kavitskaya T. *Visnik Natsional'noi akademii Derzhavnoi prikordonnoi sluzhby Ukrayini*, 2013, Iss. 3, pp. 47-49.
6. Komissarov V.N. *Teoriya perevoda (Linguistic aspects)* (Translation theory (Linguistic aspects)), Moscow, 1990, 253 p.
7. Komissarov V.N. *Sovremennoe perevodovedenie* (Modern translation studies), Moscow: ETS, 2002, 424 p.
8. Komissarov V.N. *Obshchaya teoriya perevoda (Problemy perevodovedeniya v osveshchenii zarubezhnykh uchenykh)* (General theory of translation (Problems of translation studies in the coverage of foreign scientists)), Moscow, 1999, 134 p.
9. Korolkova S.A. *Tekstologicheskaya model' obucheniya pis'mennomu perevodu studentov yazykovykh vuzov (na materiale frantsuzskogo yazyka)* (Textological model of teaching translation to students of language universities (based on the French language)), candidate's thesis, Volgograd, 2006, 198 p.
10. Latyshev L.K. *Tekhnologiya perevoda* (Translation technology), Moscow, 2nd ed., 2005, 320 p.
11. Nelyubin L.L. *Vvedenie v tekhniku perevoda* (Introduction to the technique of translation), Moscow: Flinta, 2009, 216 p.
12. Retsker Ya.I. *Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika* (Theory of translation and translation practice), Moscow: R. Valent, 2007, 244 p. ISBN 978-5-93439-238-4
13. Fedorov A.B. *Osnovy obshchei teorii perevoda: lingvisticheskie problemy* (Fundamentals of the general theory of translation: linguistic problems), Moscow: Philology Three Publishing House, 2002, 5th ed., 416 p.
14. Hatim B. Teaching and Researching Translation. Harlow: Pearson Education Limited, 2001. 254 p
15. The concept of equivalence in the works of J. Catford. Wiki, 2016 - <http://ru.eltranstheorymastering.wikia.com/wiki>